

О'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR VA ULARNING AHAMIYATI

To'ychiyeva Asilabonu Temirjon qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda O'zbekistonda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmuni va ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Ta'lim islohotlari, Yangi O'zbekiston, raqamlashtirish, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, professional ta'lim, oliy ta'lim, ta'lim sifati, xalqaro standartlar.

Bugungi globallashuv sharoitida inson kapitali davlat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida qaralmoqda. O'zbekistonda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish zarurati iqtisodiyotning modernizatsiyasi, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilm-fan rivojini jadallashtirish hamda yoshlarning zamonaviy kompetensiyalarini shakllantirish ehtiyojlari bilan izohlanadi. Shu bois ta'lim sohasi keyingi yillarda davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil bo'lgandan so'ng mamlakatimizda milliy ta'lim tizimidagi tub islohotlar 1992-yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi birinchi qonun asosida boshlandi. Qonun, avvalo, milliy ta'lim tizimida ilgaridan mavjud ijobiy jihatlarni, istiqlol davrida jamiyatni ma'rifiy va ta'lim-tarbiyaviy bo'shliqdan omon saqlab qoldi. Ta'lim-tarbiya sohasida vujudga kelishi muqarrar ma'rifiy-g'oyaviy bo'shliqning qanday salbiy oqibatlariga olib kelishini endi mustaqillikka erishgan O'zbekiston Respublikasi jamiyati juda teran his qilib va anglab yetgan edi. Ana shu g'oyaviy xavfning oldi olinganligi dastlabki "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning huquqiyamaliy ahamiyatini favqulodda oshirib yubordi. Ayni paytda qonun

sobiq sovet totalitar tizimini mafkurasi illatlarni anglab olishimizga va shu orqali eski tizimdan yangi demokratik tizimga o'tishning ma'rifiy-g'oyaviy ko'prigiga aylandi. Eng muhimi qonun yaratgan huquqiy-amaliy imkoniyatlar o'laroq, ta'lim tizimiga qator jiddiy yangiliklar kirib keldi jumladan, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlariga kirishning test tizimi joriy etildi. Milliy istiqlool taraqqiyoti ta'lim-tarbiya sohasida yanada jiddiy yangilanishlar qilishni taqoza eta boshladi. Ana shu ijtimoiy talab asosida 1997-yil 29-avgustda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Ana shu Qonunning mantiqiy – amaliy davomi sifatida "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" ishlab chiqildi. Milliy dastur bevosita Qonunning ijrosi, shakli, vositasi hamda usullarining yig'ma amaliy-tashkiliy majmui bo'lib, ular yaxlit holda ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlarning asosiy yo'nalishlari, tamoyillarini, talab va maqsadlarini, muammoni yechimi bilan bog'liq rejalarni belgilab berdi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" bosqichma-bosqich ro'yobga chiqarish yuzasidan kompleks rejasini ishlab chiqib, hozirgacha amalga oshirmoqda.

Yoshlarga munosib ta'lim berish, ularning ilm-fanga bo'lgan intilishlarini ro'yobga chiqarish, maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, o'rta va oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini, ilmiy va o'quv jarayonlari sifatini tubdan yaxshilash maqsadida 2020 yil 23 sentyabr kuni "Ta'lim to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi. Qonun bilan jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi.

Unga binoan (7-modda) O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshirilishi belgilandi, xususan:

- maktabgacha ta'lim va tarbiya;
- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
- professional ta'lim; oliy ta'lim;
- oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta'lim.

Shuningdek, Umumiy o'rta ta'lim I–XI sinflarni o'z ichiga oladi. Mazkur qonunning 9-moddasida umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich (I–IV sinflar), tayanch o'rta ta'lim (V–IX sinflar), o'rta ta'lim (X–XI sinflar) bosqichlari belgilandi. Qonunda “umumiy o'rta ta'lim umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida uzluksiz tarzda, majburiy bo'lgan o'n bir yil davomida amalga oshiriladi” deb belgilab qo'yildi.

O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda 9 yillik tayanch o'rta ta'lim asosida 2 yil mobaynida amalga oshiriladi.

Professional ta'lim boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim darajalariga ajratiladi.

Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida kunduzgi ta'lim shaklida 2 yillik integratsiyalashgan dastur asosida bepul amalga oshiriladi.

O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida davomiyligi 2 yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi. O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida davomiyligi kamida 2 yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.

Oliy ta'limdan keyingi ta'limni oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarda olish mumkin. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta'minlaydi.

Bundan tashqari Qonunning 15-moddasida quyidagi **ta'lim olish shakllari** o'z aksini topdi:

- ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish (kunduzgi);
- ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy);
- dual ta'lim;
- oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish;
- katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish;

- inklyuziv ta'lim;
- eksternat tartibidagi ta'lim;
- mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash.

Qonunga ko'ra, davlat oliy ta'lim, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalari va ularning filiallari, shuningdek davlat ishtirokidagi oliy, o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari Prezident yoki Hukumat qarorlari bilan tashkil etiladi. Nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish

ularning ta'sisчилari tomonidan amalga oshiriladi. Nodavlat ta'lim tashkilotlariga litsenziya Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan beriladi.

Hozirgi kunda ta'limda raqamlashtirish jarayonlari keng yo'lga qo'yildi hamda raqamlashtirish ta'lim sifatini oshirishning asosiy vositasiga aylandi. Masofaviy ta'lim platformalari, elektron test tizimlari, elektron kundalik kabi tizimlar ta'lim jarayonini shaffoflashtirmoqda va o'quvchilar bilimni baholashni adolatli va ob'ektiv qilmoqda. Bundan tashqari har bir ta'lim turlarida o'ziga xos islohotlar olib borilmoqda. Xususan, professional ta'lim tizimida dual ta'lim tizimi joriy qilinib, o'quvchilar o'qish bilan bir vaqtda ishlab amaliy tajriba ham to'plash imkoniga ega bo'lmoqdalar va yirik ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlik memorandumlari imzolanmoqda. Albatta bu o'zgarishlar o'quvchilarning bandligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Oliy ta'lim tizimiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, har bir oliy ta'lim muassasalarida Kredit-modul tizimi joriy qilinmoqda. Bu tizim talabalarning mustaqil o'qishini oshirib akademik mobillik imkoniyatlarini yaratmoqda. Bundan tashqari ko'plab davlat oliygohlariga akademik va moliyaviy mustaqillik berildi, bu ularga yangi ta'lim yo'nalishlarini ochish, zamonaviy yangi texnologiyalarni joriy etish hamda xalqaro reytinglarda ishtirok etish imkoniyatlarini ochmoqda. Shu bilan birgalikda pedagoglarning ham maqomi sezilarli darajada oshdi, ya'ni ularning ish haqi oshirildi, o'qituvchilar attestatsiyasi adolatli va shaffof tizim asosida qayta tashkil etildi va yosh pedagoglarni qo'llab-quvvatlash dasturlari joriy qilindi.

Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda xorij tajribalarni o'rganish, tizimga xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizim bilan qiyosiy, xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qilish, tizimda ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro loyihalarni joriy qilish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim sanaladi.

O'zbekiston ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar mamlakat taraqqiyotining hal qiluvchi omili bo'lib, zamonaviy bilim va kompetensiyalarga ega avlodni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan barcha bosqichlarda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar ta'lim jarayonining mazmuni, metodlari va texnologiyalarini xalqaro standartlarga moslashtirmoqda. Ta'limni raqamlashtirish, pedagoglar maqomini oshirish, malakali kadrlar tayyorlash tizimini yaxshilash natijasida O'zbekistonning inson kapitali sifat jihatdan yuksalib, mamlakatning innovatsion rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratilmoqda. Islohotlar natijasida ta'lim tizimi raqobatbardosh, ochiq, zamonaviy va rivojlangan modelga tom ma'noda yaqinlashmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti — PF-60-son farmoni, “2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi”, 2022-yil
2. “Ta'lim to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Qonuni, yangi tahrir, 2020-yil.
3. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi — 2022–2024-yillar statistik ma'lumotlari